
Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish yuzasida mas'ullarga ko'rsatmalar berildi.

Jinoyatchilik va uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish hamda huquqbuzarliklarni profilaktika qilish maqsadida "Payshanba - profilaktika kuni" munosabati bilan shahar hokimi Vosiljon Nazarov va sektor rahbarlari tomonidan ichki ishlar bo'limida yig'ilish o'tkazildi. Unda mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, korxonalar va tashkilotlar, ta'lim muassasalari rahbarlari ishtirok etishdi.

Shahar hokimi tomonidan jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishda jamoatchilik nazorati muhim ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Shaharda joriy yilning o'tgan davri mobaynida sodir etilgan jinoyatchilik tahlil qilindi. Targ'ibot va tashviqot tadbirlarining o'tkazilishi, profilaktika inspektorlarining faoliyatlari tanqidiy muhokama qilindi.

Mahalla xodimlari va profilaktika inspektorlariga targ'ibot tadbirlarini olib borish bo'yicha topshiriqlar berildi.

2022-06-27 09:55:56